

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

ADABIYOTSHUNOSLIK

2025 Vol. 3 (2)

www.literature.tsuull.uz

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Nurboy Jabborov
Bahodir Karimov

Mas'ul kotib: Sohiba Madirimova

Tahrir kengashi

Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova, Abdulla Ulug'ov, Dilnavoz Yusupova, Islom Yoqubov, Qo'ldosh Pardayev, Umida Rasulova, Akrom Dehqonov, Olim To'laboyev, Tozagul Matyoqubova, Shermuhammad Amonov, Shahlo Hojiyeva, Orzigul Hamroyeva, Ilyos Ismoilov, Sohiba Umarova, Gulbahor Ashurova, Ilhom Sayitqulov, Gulzoda Soatova, Dildora Rahmonova, Zilola Shukurova, Furqat To'xtamurodov, Sarvinoz Rasulova, Xurshida Raxmonova.

Jurnal haqida ma'lumot

"Adabiyotshunoslik" – "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining adabiyotshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta nashr etiladi.

Jurnalning **"Adabiyotshunoslik"** seriyasida o'zbek va jahon adabiyoti tarixi, xalq og'zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, o'zbek mumtoz adabiyotining qo'lyozma manbalari va matnshunoslik muammolari, jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqid hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishidagi eng yangi tadqiqotlar e'lon qilinadi. O'zbek va jahon adabiyotshunosligi erishgan so'nggi yutuqlari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etishga alohida diqqat qaratiladi. Maqolalarning ilmiy saviyasi va tahliliy quvvati yuqori bo'lishiga e'tibor beriladi.

"Adabiyotshunoslik" seriyasida O'zbekiston va xorijiy davlatlarning e'tirof etilgan atoqli olimlari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlarning ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Adabiyotshunoslik" seriyasi 2022-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: adabiyotshunoslik2022@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

www.literature.tsuull.uz

MUNDARIJA

MUMTOZ ADABIYOT TARIXI

Dilnavoz Yusupova

Abdullatif Latifiyning "Tazkiratush-shuaro" asarida Navoiyga ergashgan shoirlar zikri5

Zilola Shukurova

Erk-ozodlik g'oyalari tasvirlangan she'rlarning bayozlarda aks etishi17

Soxiba Madirimova

Avaz O'tar ijodida Komil Xorazmiyga izdoshlik37

Gulzoda Soatova

"Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida tarjima asarlarning yoritilishi52

Nurjahon Qayumberdiyeva

"Ruh ul-quds" sohiblariga munosabat63

Xayrullayeva Huriniso

"Qisasi Rabg'uziy" tarkibidagi kichik janrlarning badiiy talqini71

Mohinur Muhammadzokirova

"Boburnoma"ning sujet xususiyatlari79

Maftuna Saparova

Aruz ilmida istilohlar talqini88

Dilruxjon Abdilakimov

Jadidshunoslik ilmining shakllanishi va g'oyaviy-badiiy yondashuvlar101

ZAMONAVIY ADABIYOT MUAMMOLARI

Abdulla Ulug'ov

Adabiy qahramon obrazini gavdalantirishda zamon va makon tasvirining ahamiyati111

Olim Oltinbek

Rauf Parfi sarbastlarining poetik tabiati137

Fanuza Adilova

Prozaik matnda obraz poetikasining konseptual asoslari
("Yozning yolg'iz yodgori" qissasi misolida)153

Mahliyo Turg'unova

Usmon Azim ijodida istiora163

Prozaik matnda obraz poetikasining konseptual asoslari (*“Yozning yolg‘iz yodgori” qissasi misolida*)

Fanuza Adilova¹

Abstrakt

Mazkur maqolada “Yozning yolg‘iz yodgori” qissasi misolida prozaik matnda obraz poetikasining konseptual asoslari tahlil etiladi. Asarda yaratilgan obrazlarning ichki struktura va semantik qatlamlari zamonaviy adabiyotshunoslik mezonlari asosida yoritilib, ularning g‘oyaviy-estetik yuklamasi aniqlanadi. Qahramonning ruhiy holati, xotiralar oqimi, badiiy makon va vaqt elementlari orqali shakllangan obrazlar poetikasining individual va umuminsoniy mazmuni ochib beriladi. Tadqiqot davomida muallifning estetik pozitsiyasi, ramziy ifodalar tizimi va obraz qurilishidagi konseptual yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, Xayriddin Sulton prozasida badiiy tafakkur va obrazlar orqali ifodalangan falsafiy-estetik qarashlarning poetik jihatlarini ochishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *obraz poetikasi, prozaik matn, badiiy obraz, semantik qatlam, konseptual yondashuv, estetik-falsafiy mazmun, qissa poetikasi, ichki monolog.*

Kirish

Badiiy adabiyotning asosiy mohiyati insonning ichki va tashqi olamini badiiy obrazlar orqali ifodalashdan iborat. Obraz – bu adabiy matnning markaziy konstruksiyasi bo‘lib, u muallifning estetik dunyoqarashi, hayot haqidagi falsafiy mushohadalari hamda badiiy tafakkur uslubini mujassamlashtiradi. Adabiyotshunoslikda obraz poetikasi deganda obrazning tuzilishi, shakllanish mexanizmi, semantik qatlamlari, ramziy, psixologik va estetik funksiyalari tushuniladi. Ayniqsa prozaik matnda obrazlar poetikasi keng qamrovli tahlilni talab etadi, chunki proza obrazni faqat voqelikning tasviri sifatida emas, balki g‘oyaviy-estetik yuklamaga ega badiiy fenomen sifatida ham namoyon etadi.

Xayriddin Sulton ijodida, xususan, “Yozning yolg‘iz yodgori”

¹ Adilova Fanuza Shodiyor qizi – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: shodiyorovnaf@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-1076-297X

Iqtibos uchun: Adilova, F. 2025. “Prozaik matnda obraz poetikasining konseptual asoslari”. *O‘zbekiston: til va madaniyat*. 2025-3: 153-162.

qissasida obraz poetikasining murakkab va chuqur qatlamlari kuzatiladi. Asarda muallif badiiy obrazlarni faqat syujetni harakatlantiruvchi unsur sifatida emas, balki inson ruhiyatini, xotiraning estetik darajasini va vaqt tushunchasining badiiy modellashtirilishini ifodalovchi konseptual birlik sifatida tasvirlaydi. Qahramonning yolg'izlikdagi mushohadalari, kundalik hayot va ichki kechinmalar o'rtasidagi ziddiyatlar orqali prozaik obrazning psixologik va falsafiy talqini yuzaga chiqadi.

Asosiy qism

Xayriddin Sultonning "Yozning yolg'iz yodgori" qissasida insonning yashashdan maqsadi, hayotga bo'lgan munosabati chuqur falsafiy yo'sinda ochib beriladi. Asarda qahramonlarning anaviy "faollik" mezonlaridan yiroq – ular jamiyatlardagi illatlar bilan kurashmaydi, rahbarlarni fosh etmaydi, balki o'z hayoti, ichki kechinmalari, ruhiy izlanishlari orqali mavjudlik mohiyatini anglashga harakat qiladi. Ular uchun hayot – bu bir umrlik mushohada, sukunatdagi iztirob va borliq bilan barobar borish demakdir. Tashqi dunyo bilan emas, o'z yuragi bilan olishish – ana shu ruhiy kurash qissadagi obrazlar ichki dramatizmini kuchaytiradi.

Adash Karvon obrazi ham ayni shu badiiy-falsafiy yo'nalishda shakllangan. U qissaga hayotining eng og'ir nuqtasida – bir umr yig'ib kelgan orzulari, davomchisi bo'lgan farzandidan ayrilgan holatda kirib keladi. Adash Karvon va Oynisaning farzand dog'ida yongan holati orqali muallif inson hayotidagi eng katta fojia – farzand yo'qotish azobini chuqur dramatizm bilan tasvirlaydi. Bu fojiada shunchaki shaxsiy iztirob emas, balki mavjudlikning mohiyati, taqdirga bo'lgan isyon va bo'ysunuv, hayotning adolatsiz manzarasi mujassam.

Muallif asarda taqdir tushunchasini oddiy deterministik qonuniyat sifatida emas, balki ruhiy va nasliy qatlamda kechuvchi sirli kuch sifatida ko'rsatadi. Adash Karvon hali tug'ilmay turib, go'yoki uning ustidan hukm chiqarilgandek – ajdodlar zanjirida davom etayotgan yolg'izlik va yo'qotishlar uning hayot yo'lini belgilab qo'ygan. Bobosi Sohib Karvon o'n ikkita farzandining o'n bittasini yo'qotgan bo'lsa, otasi Mirza Karvon undan birgina farzand – Adashni ko'rgan. Adash Karvon ham ellikka kirib birgina o'g'il – Nasibbek tug'ilgan. Bu zanjirli takrorlanish tasodif emas, balki muqarrar taqdirning najotsiz qonuniyatidek tuyuladi.

Shu tariqa, muallif yolg'izlikni faqat ruhiy holat emas, balki nasliy, ontologik fojia sifatida talqin qiladi. Bu yolg'izlik – borliqning

sukutdagi faryodi, insonni sinovga soluvchi, lekin ma'naviy yetuklikka yetaklovchi kuchdir. Qissa davomida Adash Karvon o'z hayoti, ajdodlari va taqdir oldida yolg'iz qoladi. Ammo ayni shu yolg'izlikda – insoniylikning eng chuqur, eng sof ma'nosi yashiringan.

Adash Karvon fojiasiga bosh sababchi deb, adabiyotshunos olim I. Hasanov eng avvalo, taqdiri azal, so'ng unga shu taqdirni "ravo ko'rgan" yozuvchidir deb ta'kidlaydi. Yolg'izlik – bu insonni ayriliqlar ko'lami orqali hayotning asl ma'nosini chuqurroq anglashga yetaklovchi ruhiy holatdir. Xayriddin Sulton "Yozning yolg'iz yodgori" qissasida Adash Karvonni ana shu holatda – uzoq umr yo'lida boshdan kechirgan ayriliqlar og'ushida, ichki iztirob va xotiralar bilan yashayotgan holda sahnaga olib kiradi. Inson uchun bunday daqiqalarda qabristonga intilish tabiiy – u yerda sukut, xotira va abadiyat jam bo'lgandek tuyuladi. Muallif bu obraz orqali yolg'izlikni hayot sinovlaridan tug'ilgan ma'naviy kechinma sifatida talqin etadi.

Mana Adash Karvon ham qabristonda... *"Bu yerga otasi o'lganda keldi, onasi o'lganda keldi, qarindosh-urug'lari o'lganda keldi, tanishlari o'lganda, notanishlar o'lganda keldi va har gal yuragining bir parchasini sovuq tuproqqa ko'mib, jimgina uyiga qaytdi. Oxiri bir parchadan uzila-uzila, tuproqqa ko'mila-ko'mila yuragi adoyi tamom bo'ldi, yuragining o'rnida qolgan narsa toshga aylandi.*

U shunday deb o'ylardi.

Odamlar shunday deb o'ylashardi.

Biroq yetti yil muqaddam shu yerda, ko'ksida nimadir jazillab achishdi, zirqirab og'ridi, lovillab yondi – ko'zining oq-u qorasi, suyangan tog'i, salkam ellikka chiqib ko'rgan yolg'iz farzandi Nasibbekni qora yerga berarkan, yuragi tutday to'kildi. Otasi o'lganda uning ko'zi kuydi, onasi o'lganda jigari kuydi, qarindosh urug'lari o'lganda tomog'i kuydi, tanishlar o'lganda, notanishlar o'lganda dimog'i kuydi, ammo Nasibbek o'lganda, Nasibbegi o'lganda yuragi kuydi, kuyib-kuyib kul bo'ldi" [Sulton X. 2019, 72].

Adash Karvon umr yo'lida ko'plab insonlarni so'nggi manzilga kuzatgan edi. Ammo bu safar – o'zining jigarbandi, yolg'iz o'g'li Nasibbekni tuproqqa topshirganida – yuragini mislsiz iztirob bosdi, ko'zlarida cheksiz hasrat, qalbida esa botiniy bo'm-bo'shlik paydo bo'ldi. Ilgarigi yo'qotishlar – ota-onasi, buvisi hayotdan ko'z yumgan paytlarida, Adash Karvon o'zini ularning izdoshi sifatida tasavvur qilib, bu dunyoda ulardan bir nishona, davomchi sifatida yashayotganiga yupanch topgan edi. U o'z tirikligini ular ruhi uchun tayanch, yashash maqsadi deb bilgan. Ammo Nasibbekning o'limi

bilan bu bog' uzildi – endi u emas, balki o'zi davom ettirishga umid qilgan hayot butkul to'xtadi.

Bu holat Xayriddin Sulton qissasining ruhiy-falsafiy qatlamida insoniyat uchun eng og'ir sinov – farzand yo'qotish fojiasi qanday dahshatli bo'lishini chuqur badiiy teranlikda aks ettiradi. Adash Karvon timsolida muallif nafaqat otalik dardini, balki mavjudlikning ma'nosiz tus olishini, hayot bilan o'lim o'rtasidagi noaniq, ammo ayovsiz chegara qanday bo'lishini aniq va samimiy tasvirlaydi. Farzand – bu insonning maqsadi, davomchisi, hayotga bog'laydigan so'nggi ipidir. Bu ip uzilganda esa, inson faqat hayotda emas, ruhida ham yetimga aylanadi. Shu bois, bu sahna nafaqat shaxsiy fojiaga, balki umuminsoniy qayg'uga aylanadi.

“Dunyoda odamzoddan yaxshimi-yomonmi faqat farzand qolar ekan. Kim bilsin, ehtimol, taqdiri azal shunday bitilgandir, biroq, nahotki, o'sha uzoq mushtipar Ulug' kampir qattol bo'ronlardan, dahshatli qahratonlardan, bemahal izg'irin-u telba dovullardan eson-omon olib o'tgan bir avlodning lipillab turgan shamchirog'i Adash Karvonning qo'lida o'chsa!”

Adash Karvon surgun yo'llaridan yurakka og'ir izlar solgan holda yurtga qaytayotgan mahal, yo'lda duch kelgan Naimdan Oynisaning hanuz uni kutib yashayotganini eshitadi. “Farishtadek pokiza, jannati qiz ekan”, degan baho o'sha ondayoq Adash Karvon qalbini larzaga soladi. Yigirma yil davomida lagerda umr kechirgan, hayotning eng ayovsiz sinovlaridan o'tgan, insoniy qadriyatlar, orzu va oriyatdan mahrum bo'ldim, degan qarorga kelgan bir inson uchun ayolning bunday sadoqatini anglash, uni yurakda his etish beqiyos ruhiy silkinishga sabab bo'ladi. Bu sadoqat Adash Karvon uchun faqat shaxsiy baxt emas, balki yana insoniyligining, unutilgan or-nomusining qaytishi timsolidir.

Xayriddin Sulton Oynisaning fidoyiligi va sabrini yuksak badiiy umumlashtirish asosida yoritish uchun oddiy hikoya vositalaridan emas, balki ramziy va rivoyaviy qatlamlar orqali yondashadi. Aynan shu nuqtada rivoyatning qissa ichiga kirib kelishi – tasodif emas, balki obrazni falsafiy-estetik bosqichda chuqurlashtirish vositasidir. Iskandar ko'zgusi, Kioksar va Rum qaysarining qizi haqidagi rivoyat – bu nafaqat tarixiy parcha, balki Oynisaning ma'naviy salohiyatini yorituvchi ramziy hodisadir. Bu rivoyatlar ayol qalbining chuqur qatlamlarini, uning sadoqatidagi metinlik va poklikni san'atning baland pardasida ifodalash uchun xizmat qiladi. “Yozning yolg'iz yodgori” qissasida Nasibbekning o'ldirilishi voqeasi syujet chizig'ining eng murakkab va ta'sirchan nuqtalaridan biri sifatida

badiiy kompozitsiyaning markaziga chiqadi. Bu manzara muallif tomonidan uch marta – Sattor, Adash Karvon va nihoyat, miltiqning tilidan tasvirlanadi. Bunday ko'p pozitsiyali yondashuv, shubhasiz, muallif badiiy tafakkurining murakkabligidan, voqelikni biryoqlama emas, ko'p qatlamli, ziddiyatli holatlarda ko'rsatishga intilishidan dalolat beradi.

Sattor hikoyasi – qotilning o'z xatti-harakatlarini ichki ong oqimi orqali oqlashga urinishi, ichki tahlilning cheklangan ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Uning pozitsiyasi subyektiv, kechirim so'rash va o'zini oqlash istagidan tug'ilgan. Adash Karvon esa bu hodisaga boshqa bir nuqtayi nazardan – yaqin insonini yo'qotgan fojiaiy obraz sifatida yondashadi. U voqeani o'z ruhiy iztiroblari, xotira va armonlar orqali idrok etadi. Har ikki pozitsiyada ham voqeaning chinakam mohiyatini butunlay qamrab olish imkoni bo'lmaydi.

Shu nuqtada muallif g'oyat noan'anaviy, ammo badiiy mahoratni namoyon qiluvchi usulga – tilsiz, jonsiz, iroda va ongdan xoli, ammo voqeaga bevosita daxldor guvoh – miltiq nigohiga murojaat qiladi. Bu yondashuvni faqat forma tajribasi sifatida emas, balki chuqur poetik va falsafiy asoslangan, inson va qurol o'rtasidagi murakkab psixologik ziddiyatni ochib beruvchi badiiy vosita sifatida talqin etish mumkin.

Muallif miltiq obraziga shunchaki voqealar quroli sifatida emas, balki ruhiy sezuvchanlikka ega, his-tuyg'ularni ilg'ay oladigan subyekt darajasidagi badiiy shaxsiyat baxsh etadi. Qurol insoniy xususiyatlar bilan siylanadi: u entikadi, titraydi, beozorlikni va zulmni farqlay oladi. Miltiq ilk bor sevgan qiz qo'liga o'tganida, uning holati badiiy obrazlar orqali insoniy his-hayajonlar bilan ta'riflanadi: *"Qiz meni shundagina ko'rdi, bandimdan ushlab qo'liga oldi. Uning kaftlari paxtadek yumshoq edi, shu paytgacha men sira bunaqangi beozor qo'l kaftini tuymagan edim"*. Bu ifoda orqali miltiq obrazida sezuvchanlik, nozik estetik idrok, ruhiy sezgi kuchi mujassamlanadi.

Voqeaning dramatik cho'qqisi esa Sattorning qo'liga qurol o'tgan lahzada boshlanadi. Miltiq titraydi – bu oddiy tebranish emas, ichki ruhiy silkinish, qotillik oldidan sezilgan ongosti qo'rquvining poetik ifodasidir. Aynan miltiq orqali o'quvchi Sattorning ruhiy notinchligi, qalbiy iztiroblarini yana bir bor his etadi. Bu esa voqeani tashqi ko'rinishda emas, balki ichki dramatismda tasvirlashga yo'naltirilgan chuqur poetik niyatni bildiradi.

Eng kuchli va falsafiy jihatdan e'tiborga molik lahza – miltiqning Nasibbek tomon "yordamga oshiqishi" sahnasidir. Qurol – odam o'ldiruvchi vosita – jabrlanuvchiga yordam berishga

intiladi. Bu hodisa o'z-o'zidan badiiy paradoksni yuzaga keltiradi: jonsiz, iroda va ongdan xoli bir qurol qanday qilib axloqiy tanlovga ega bo'lishi mumkin? Muallif bu orqali insoniyat ongining doimiy ziddiyatini – irodasiz vositalar qo'lida sodir bo'ladigan fojialarning falsafiy ildizlarini ochib beradi. O'quvchi beixtiyor savolga duch keladi: nega Nasibbek miltiqning ichki faryodini eshitmadi? Nega inson fojiasi doimo kechikib anglandi?

Bu sahna orqali Xayriddin Sulton an'anaviy realizm doirasidan chiqib, psixologik-falsafiy yo'nalishda obraz va predmetlarga yangicha mazmun bag'ishlaydi. Bu uslubiy yondashuv Yevropa modernist adabiyotidagi ruhiy voqelik, ichki sukunat va sezilmas silkinishlar poetikasini eslatadi. Muallifning miltiqni lirik shaxsga aylantirishi, uni dramatik kuchga ega ijrochi sifatida sahnaga olib chiqishi – o'zbek prozasida badiiy tajriba va obraz poetikasining yangi qirralarini ochadi.

Badiiy asarlarning ta'sirchanlik darajasini belgilovchi muhim vositalardan biri sifatida tafsilotli detallar va ramziy detallar alohida ahamiyat kasb etadi. Tafsilot – bu narsa yoki hodisani ko'p qirralikda, keng ko'lamda tasvirlash vositasi sifatida keng tarqalgan; u voqeani batafsil ochadi, tasvirning hajmini kengaytiradi. Ramziy detal esa aksincha, hodisaning asosiy mazmunini, g'oyaviy mohiyatini bir zarbda, lo'nda va teran ifodalashi bilan ajralib turadi. Shu sababli adabiyotshunos E.Dobin adabiy matnda detalning badiiylik darajasi bo'yicha tafsilotdan yuqoriligini ta'kidlaydi va ularni ajratib talqin etishni taklif etadi [Dobin E. S. 1975, 14].

Darhaqiqat, detal birlikni bildiradi, tafsilot esa ko'plikni. Ko'plab detallarning jamlanmasi natijasida tafsilot yuzaga keladi. Har ikkisi ham o'z kontekstida muhim badiiy vazifani bajaradi: tafsilot orqali keng tasvir yaratilsa, detal esa shu tasvirning eng zarur va ta'sirchan nuqtasini yoritadi. Yozuvchi mahorati aynan shu ikki vositani joyida va maqsadga muvofiq qo'llashda namoyon bo'ladi.

Yozuvchining badiiy yangilik sari intilgan novatorligi esa ko'pincha aynan shunday detallar orqali yuzaga chiqadi. U hayotda kam uchraydigan yoki umuman mavjud bo'lmagan voqeani badiiy shartlilik asosida, ruhiy asoslantirish orqali asarga singdiradi. Bu holat muallifning estetik niyatidan kelib chiqib, voqelikni muayyan detal orqali ramziy darajada umumlashtirishga xizmat qiladi.

Xayriddin Sulton "Yozning yolg'iz yodgori" qissasida obrazlarning ichki olamini yoritishda psixologik detallarni ustalik bilan qo'llaydi. Adash Karvon obrazini yaratishda esa muallif an'anaviy portret chizish – tashqi qiyofa, kiyim-kechak, yurish-

turish orqali ta'riflash yo'lidan bormaydi. U qahramonning tashqi ko'rinishini bevosita emas, balki ichki kechinmalar, xotiralar va ruhiy holatlar orqali ochishga intiladi. Adash Karvonning portreti asar davomida deyarli tasvirlanmaydi, faqat birgina epizodda – u qamoqdan qaytib kelib, Toshkent vokzalida Naimni ko'rib qolgan lahzada, qisqagina holatda gavdalanadi:

"Ellik beshinchi yil o'n sakkizinchi avgust kuni bemahal qarigan bir kishi Toshkent vokzalida kunduzgi poyezddan tushdi. U platformada bir nafas gangib, yon-veriga boqdi, so'ng qopchig'ini yelkasiga ilib, chumolidek g'ujg'on o'ynagan olquroq olomon ichiga singib ketdi. Chap oyog'ini sezilar-sezilmas siltagancha bosib borarkan, ko'zi atrofga alanglab olma-kesak terardi".

Bu yerda adib hali personajning ruhiy olamiga to'g'ridan-to'g'ri kirib bormaydi. Dastlabki tasvirda u taqdir zarbasidan sinib, bukilgan insonning tashqi qiyofasini chizish bilan cheklanadi. Adash Karvonning portreti aynan shu tashqi holat – ichki iztirobdan sidirilib chiqqan holsiz va ezilgan vujud orqali beriladi. Biroq qissa rivoji davomida muallif insoniyatni asrlar davomida qiynab kelayotgan ontologik va axloqiy muammolar ustida mushohada yuritishni boshlaydi. Bu mushohada Adash Karvonning ichki monologlari, tasavvurlari, anglash va inkor jarayonlari orqali amalga oshadi. Shu tariqa qahramonning ichki mohiyati — tiynati asta-sekin ochilib boradi.

Adash Karvonning portreti asarda an'anaviy tarzda emas, balki badiiy matn bo'ylab tarqalgan holda, fragmentlar shaklida berilgan. U asarning alohida joyida emas, balki muallifning dunyoni anglash usuli, ruhiy holati va hayot haqiqatlarini qanday qabul qilishi orqali matnning o'ziga singib ketgan. Bu portretni asarning har bir qatlamidan, psixologik satr oralaridan, ruhiy iztirob va mushohada lahzalaridan topish mumkin.

Muallifning bu yondashuvi psixologik detal vositasida amalga oshadi. Bunday detallar inson ichki olamining gohida yashirin, gohida esa keskin namoyon bo'luvchi kechinmalarini ochib beradi. Bu yerda og'zaki bo'lmagan ifoda shakllari – mimika, pantomima, xatti-harakatlar, kulgi, yig'i, nutq tempi kabi paralingvistik belgilar muhim rol o'ynaydi. I.V. Straxov ta'biri bilan aytganda, bular "personajning dinamik portreti"ni tashkil etuvchi vositalar bo'lib, ular personajning holatdagi o'zgaruvchanligini, ruhiy ahvolini har lahzada yangilanib boruvchi tafsilotlar orqali ochadi. Ruhiy tavsifning umumlashma-belgili shakliga nisbat beradigan bunday detalni adabiyotshunoslar "hislarning verbal (og'zaki) belgilanishi"

deb ham ataydilar [Skaftimov A. P. 1972, 437].

Tashqi va psixologik detallar o'rtasida qat'iy chegara mavjud emas. Aksincha, ular orasidagi o'zaro o'tish holati badiiy tasvirning eng nozik va sermazmun qatlamlaridan birini tashkil etadi. Agar tashqi detal qahramonning ruhiy holatini, ichki silkinishini, qalb harakatini ifodalashga xizmat qilsa, u holda u allaqachon psixologik detalga aylanadi. Ayniqsa, qahramonning o'y-kechinmalari bilan uyg'unlashgan holda tasvirlangan tashqi belgilar – qarash, imo-ishora, sust harakat yoki sukunat kabi elementlar obrazning ichki olamini ochuvchi vositaga aylanadi.

Bu jihat "Yozning yolg'iz yodgori" qissasida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Masalan, Adash Karvonning o'zini aybsiz deb hisoblab, qochishdan bosh tortgan epizodi shunchaki tashqi harakat emas, balki chuqur ichki ishonch, ruhiy qarorning tashqi ko'rinishi sifatida talqin etiladi. Holbuki, o'sha vaziyatda ko'pchilik uchun eng tabiiy yo'l – qochish bo'lgan bo'lsa-da, Adash Karvonning bunday tanlov qilmasligi uning axloqiy-estetik pozitsiyasi, vijdon bilan yuzlashuvga tayyor holatini aks ettiradi. U Oynisa bilan o'rtalaridagi munosabatni oddiy tuyg'u emas, balki muqaddas bir fотиha sifatida qabul qiladi va harakatini aynan shu anglash asosida belgilaydi.

Shu jihatdan qaralganda, obrazdagi bunday dissonans – tashqi holat va ichki qarashlar o'rtasidagi uyg'unlashmaganlik emas, balki ongli ziddiyat orqali ma'naviy mas'uliyatning namoyon bo'lishidir. Bunday detallar muallifning chuqur psixologik kuzatuvchanligi natijasidir va ular nafaqat obraz xarakterini ochadi, balki o'quvchini voqelikning ichki qatlamlarini anglashga undaydi. Ustalik bilan kiritilgan bunday detallar oddiy voqealik yuzasidan emas, balki uning zamirida yotgan axloqiy-falsafiy asoslar bilan mushohada yuritishga chorlaydi:

" – Meni dardisar qilib ilashtirmang, G'iyosxon. Bilasiz-ku, bari bir sizga hamroh bo'lolmayman.

– Nega? Nega, axir?

– Fotiha... fotiha nima bo'ladi?

– E, fotihangizni qo'ying! Boshingiz omon bo'lsa, xotin topiladi. Agar chin taqdir bitgan bo'lsa, qirq yil qiyomatda ham shu qiz sizga nasib qiladi. Taqdir bitmagan bo'lsa, chimildiqdayam barmog'ingizni tishlab qolaverasiz.

– Fotiha – xudoning muhri, der edingiz-ku, G'iyosxon?

– Tavba! Hozir masala talashadigan paytmi, Adashboy!

Buncha lattachaynar bo'lmasangiz!

– Mayli, yo'lingizni bersin"

Adash Karvon obrazida qalb tubidan joy olgan din-diyonatga sadoqat, lafz va va'daga vafodorlik kabi fazilatlar psixologik detalning muhim ko'rinishi – psixologik portret tavsifi orqali o'z ifodasini topadi. Bu jihatlar faqat og'zaki bayon bilan emas, balki uning harakatlari, tanlovlari, sukuti va ichki qarorlarida namoyon bo'ladi. Qahramonning ruhiy olamida shakllangan bu fazilatlar bevosita uning ma'naviy tarbiyasi, ilmiy dunyoqarashi va axloqiy pozitsiyasi bilan bog'liq.

Xulosa

Adash Karvon madrasa tahsilini olgan, tavozeli, xokisor, o'z hayotini Sharq mutafakkirlarining, islom axloqi va milliy ma'naviyatning mantiqiy mezonlari asosida yo'naltirgan odam sifatida gavdalanadi. Unga xos bo'lgan sokinlik, hayotga teran nigoh, sabr, vijdoniy poklik kabi jihatlar tasvirda shunchalik tabiiy va ishonarli ifodalanganiki, o'quvchi bu obraz orqali xalqimizning asrlar davomida shakllangan axloqiy an'alarini, e'tiqod va ma'naviy mezonlarini his eta oladi. Aynan shuning uchun ham Adash Karvonning siyratidan badiiy mazmunga aylangan insoniy odob, ichki go'zallik, ruhi poklik nurlanib turadi.

"Yozning yolg'iz yodgori" qissasi Xayriddin Sulton qahramonlarining ichki dunyosini poetik tafakkur orqali yoritishda erishgan yuksak badiiy mahoratini ko'rsatadi. Asarda tasvirlangan yolg'izlik, kechinma va iztirob kabi ruhiy holatlar, ayniqsa, bosh qahramon obrazining konseptual asosini tashkil etadi. Obraz poetikasi faqat tashqi ta'rif bilan cheklanmay, balki xotira, vaqt, makon va ichki monolog orqali keng badiiy-falsafiy mazmunga ega bo'ladi. Qissada insoniy iztirob, o'tgan vaqtga bo'lgan sog'inch, o'tmish va hozirgi holat o'rtasidagi dramatik ziddiyat badiiy ifoda topadi.

Adabiyotlar

- Sarimsoqov B. (2004). *Badiiylik asoslari va mezonlari*. – Toshkent, Bookmany print. 252 b.
- Jahon adiblari adabiyot haqida. (2010). – Toshkent, Ma'naviyat. 389 b.
- Umurov H. (2002). *Adabiyot nazariyasi*. – Toshkent, Sharq. 264 b.
- Бахтин М. (1979). *Эстетика словесного творчества*. – Москва, Искусства. с. 334.
- Добин Е. С. (1975). *Искусство детали: Наблюдения и анализ*. – Ленинград.: Сов. писатель (Ленингр. отд.). с. 230.
- Sulton X. (2019). *Ko'ngil ozodadur*. – Toshkent, Yangi asr avlodi. 671 b.

Conceptual Foundations of Image Poetics in Prose Texts (on the example of the novella “*The Lonely Relic of Summer*”)

Fanuza ADILOVA ¹

Abstract

This article analyzes the conceptual foundations of image poetics in prose texts, taking Xayriddin Sulton's novella “*The Lonely Relic of Summer*” as an example. The inner structure and semantic layers of the characters created in the work are examined through the lens of contemporary literary criticism, with particular attention to their ideological and aesthetic significance. The study explores how the protagonist's psychological state, the flow of memories, and the artistic dimensions of space and time shape the poetics of images, revealing both individual and universal meanings. Furthermore, the author's aesthetic stance, the system of symbolic expressions, and the conceptual approaches to image construction are investigated. The article also seeks to uncover the poetic dimensions of philosophical and aesthetic reflections expressed through artistic thought and imagery in Xayriddin Sulton's prose.

Keywords: *image poetics, prose text, artistic image, semantic layer, conceptual approach, aesthetic-philosophical meaning, poetics of the novella, inner monologue.*

References

- Sarimsoqov B. (2022). *Badiiylik asoslari va mezonlari*. – Toshkent, Bookmany print. 252 b.
- Jahon adiblari adabiyot haqida. (2010). – Toshkent, Ma'naviyat. 389 b.
- Umurov H. (2004). *Adabiyot nazariyasi*. – Toshkent, Sharq. 264 b.
- Baxtin M. (1979). *Estetika slovesnogo tvorchestva*. – Moskva, Iskusstva. 334 c.
- Dobin Ye. S. (1975). *Iskusstvo detali: Nablyudeniya i analiz*. – Leningrad. Sov. pisatel (Leningr. otd.). c. 230.
- Sulton X. (2019). *Ko'ngil ozodadur*. – Toshkent, Yangi asr avlodi. 671 b.

¹ Adilova Fanuza – supporting doctoral student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: shodiyorovnaf@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-1076-297X

For citation: Adilova, F. 2025. “Conceptual Foundations of Image Poetics in Prose Texts”. *Uzbekistan: language and culture*. 2025-3: 153-162.